

**TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISH JARAYONIDA TA’LIMNING
ZAMONAVIY METODLARI, PEDAGOGIK VA AXBOROT-
KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING
AHAMIYATI**

Hakimov Jo‘rabek Alisherovich

Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani

39-umumiy o‘rta ta’lim maktabining Texnologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiya fanini o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy usullar, Master klass, SWOT tahlil, texnik firklash...

Barchamizga ma’lumki, texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy vazifalari, materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid ma’lumotlarni o‘rganish, texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish, texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qo‘llay olish, texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish; texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish, buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish, ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat. Hozirgi kunga kelib deyarli barcha fanlarni o‘qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan keng qo‘llanilib kelinmoqda. Texnologiya fani

darslari maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik tamoyillarni qo'llashda, uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O'quvchilar bilish faoliyati bilangina emas, balki yaratish faoliyati bilan ham shug'ullanadilar. Texnologiya fani mehnat qurollari, jarayonlari oddiy o'rganish ob'ekti sifatida emas, balki o'quvchilar amaliy ishlarini faollashtiruvchi ko'rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta'limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi. Texnologiya fanini o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari bor.

O'quvchilarni texnologiya fanini to'liq o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion- pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishchi holatdagi mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalari va maketlaridan foydalanilinish, texnologiya faniga oid televizor, radioda berilgan eshittirishlarni ko'rish, o'rganilgan ish usullarini bajarish, jurnal va gazetalarda berilgan ma'lumotlarni o'rganib borish, texnologiya faniga oid atamalarni topishda media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajarish axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana olish; fayllarni ochishda media-madaniyatga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanganimizda fan bo'yicha o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimotlar namoyish qilganimizda o'quvchilar ko'rish orqali chuqurroq tasavvur va bilimga ega bo'ladilar. Bizningcha texnologiya darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish katta ijobiy natija beradi. Chunki oldin o'quvchilarga texnologiya darslarida amaliy mashg'ulotlar jarayonida buyumlar tayyorlash jarayonini o'qituvchi tomonidan birma-bar namoyish qilib berilar edi, bu ortiqcha vaqt sarflanishiga, ayrim paytlarda

o‘qituvchining qayta ko‘rsatib berishiga ham to‘g‘ri kelar edi. Bugungi kunda esa axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib tasvirga olingan mehnat operatsiyalarining videodarslarini o‘quvchilarga havola etib, o‘quvchilar ishini o‘qituvchi tomonidan bemaol nazorat qilish imkonini beradi, o‘quvchilarning bilim darajalarini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, o‘quvchilarga malakali duradgorlar, chilangarlar, oshpazlar, tikuvchilar va turli sohadagi hunarmandlarimiz tomonidan bajarilgan o‘quv mashg‘ulotlari **“Master klass”** larni namoyish etish orqali ularda turli xil mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish, kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini ham yaxshi yo‘lga qo‘yish imkoniyatini beradi. Biz yuqorida texnologiya darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning ayrimlarini ko‘rsatib o‘tdik. **“SWOT-tahlil” metodi** asosida guruhlariga vazifa beriladi. Yangi mavzudan kelib chiqib o‘z mustaqil fikrlarini yozishadi.

S-Kuchli tomonlar	W- Duradgorlik qulayligi, mushkulimiz oson bo‘ladi.
O-Imkoniyat Yangi inshootlar quriladi, buyumlar yasaladi	T-xavf-xatar Texnika xavfsizligiga rioya qilish kerak

“Bilimlar xazinasi” usuli.

1 Xalq hunarmandchiligi turlarini toping.

A) Quroqchilik B) Zardo‘zlik S) to‘quvchilik D) hammasi to‘g‘ri.

2.Quroqchilik san'atida nimadan foydalaniladi.

A) gazlama qirqimlaridan B) matolardan S) iplardan.

3.Ommaviy tikiladigan kiyimlar razmerlarini toping.

44,46,48 B) 50,52,54 S) 56,58,60 D) hammasi to‘g‘ri. .

Hozirgi kunda innovatsion ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'limning samaradorligini ko'tarish kundana-kunga kuchayib bormoqda.

Har qanday samarador bo'lgan dars rejasi to'rt asosiy elementni o'z ichiga qamrab olishi lozim:

Ushbu to'rt asosiy element o'qituvchiga katta imkoniyatlar yaratib, o'quvchilar bilan muloqot qilishga yordam beradi va o'quvchilarning darsda foal ishtirok etishini ta'minlab beradi.

-Qiziqtiruv-motivatsiya

-Taqdimot-prezentatsiya

-Amaliyot-praktika

-Natija-o'zlashtirish darajasini tekshirish

-Qiziqtiruv.

“Taqdimot” usuli. Dars rejasining bu qismi yangi mavzu bilan bog'liq yangi materiallar berish yoki mavzuning bir qismi bilan bog'liq mag'lumatlar, dalillar, qoidalar taqdim etish faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Bunda maqsad o'quvchilarning bilgan narsalarini asos qilib olgan holda bilmaganlari haqidagi bilimlari darajasini oshirishdir. Agar oldingi darsda o'tilgan materiallarni qaytaradigan bo'lsak, ularni bu safar yangi ijodiy nuqtayi nazardan yaratishimiz lozim boladi.

“Amaliyot” usuli. Darsning ushbu qismida o'quvchilarning oldingi bosqichda olgan bilimlari asosida ularni amaliy fikrlashga o'rgatish. Bunday amaliy mashg'ulot turlarini darsdan oldin tayyorlab kelish maqsadga muvofiqdir. Dars jarayonida o'quvchining bajarayotgan ishlarini diqqat bilan kuzatish, yangi malumotlarning tug'ri o'zlashtirilayotganiga ahamiyat berish zarur.

Natija. Mavzuning yangi o'rganilgan materiallarini o'quvchilar bilan muloqot qilgan holda muhokama qilish va bu jarayonga ularni iloji boricha ko'proq jalb qilish yaxshi natijalarga olib keladi. Agar biror bir qoida, dalil, qonun, ko'rsatkish

yoki tartibot o'quvchilarga tushinarsiz bo'lib qolsa, ularni tushintirishga harakat qilish va ularning ko'p moxiyatini anglaganliklarini his qilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda texnologiya darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan keng foydalanilsa texnologiya ta'limi darslari sifati samarali bo'ladi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Ayupov. Interfaol ta'lim usullari. T, 2001-yil
2. Internet saytlari: -ZiyoNet .uz, - kitob.uz